



Received: April 14, 2025
Accepted: June 23, 2025
Available online: June 25, 2025

Ozoda Tojiboyeva

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent
Alisher Navoi nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va
adabiyoti universiteti
Toshkent, O'zbekiston

Ozoda Tajibaeva

Associate Professor, Docotor of Philosophy in Philo-
logical Sciences (PhD)
Tashkent State University of Uzbek Language and
Literature named after Alisher Navoi
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: ozoda@navoiy-uni.uz
ORCID iD: 0000-0003-4742-8357

MUHAMMAD SOLIHNING ADABIY MEROSI VA O'RGANILISH TARIXI

THE LITERARY HERITAGE OF MUHAMMAD SALIH AND THE HISTORY OF ITS STUDY

ANNOTATSIYA

ABSTRACT

O'zbek adabiyoti tarixida temuriylar davri ijodkorlari badiiy ijod bilan birgalikda siyosiy-ijtimoiy jarayonlarda ham faol qatnashgani kuzatiladi. Ayniqsa, temuriylar davrining yakunlanish davridan shayboniylar davriga o'tish davri o'zining turfaligi bilan e'tiborni tortadi. Har ikki davr adabiy muhitidan bahramand bo'lgan adib – Muhammad Solihning ham o'zbek adabiyoti tarixida o'ziga xos o'rni bor. U temuriylar xonadoniga yaqin bo'lsa-da, ikkinchi sulola vakili – Muhammad Shayboniynon haqida maxsus doston yaratgan, forsiy va turkiy tilda she'rlar yozgan. Adibning adabiy merosi manbalari bugungi kunda Vengriya, Tojikiston davlatlarida saqlanadi. Lirik she'rlari qo'lyozma holda bayozlar tarkibida yetib kelgan. "Shayboniynoma" dostonining asl matni ham Vengriyada saqlanadi.

Mazkur tadqiqot ishining maqsadi o'zbek adabiyotida nisbatan kam, bироqlama o'rganilgan Muhammad Solih adabiy merosi manbalari va ularning dunyo adabiyotshunosligida o'rganilish tarixini yoritishdir. Shu maqsadda quyidagi vazifalar belgilab olindi: a) shoir lirik va epik merosi manbalarini aniqlash; b) dunyo fondlaridagi qo'lyozma nusxalari va ularning o'rganilish tarixini yoritish; d) xalqaro miqyosda va yurtimizdagi o'rganilish tarixini tizimlashtirish; ye) kelgusida bajariladigan vazifalar ko'lamini belgilash.

Muhammad Solihning forsiydagi she'rlari Faxriy Hiraviyning "Radoyif ul-ash'or" to'plami va Muhammad Rahimxon Feruz davrida

The history of Uzbek literature has noted that the writers of the Timurid era, along with their artistic output, actively participated in political and social processes. The transition period from the end of the Timurid era to the Shaybani era is particularly notable for its diversity. The writer Muhammad Salih, who immersed himself in the literary milieu of both eras, also occupies a special place in the history of Uzbek literature. Despite his close ties to the Timurid dynasty, he created a distinctive epic poem about Muhammad Shaybani Khan, a representative of the second dynasty, and wrote poems in Persian and Turkic. Sources of the writer's literary legacy are currently preserved in Hungary and Tajikistan. His lyrical poems have been preserved in manuscripts in the form of bayazs. The original text of the epic "Shaybaniname" is also preserved in Hungary.

The purpose of this research is to identify the sources of Muhammad Salih's literary legacy, which have been relatively understudied in Uzbek literature, and the history of their study in global literary scholarship. To this end, the following objectives were set: a) identify the sources of the poet's lyrical and epic legacy; b) elucidate the history of the study of manuscript copies in global collections; d) systematize the history of study in the world and in our country; and e) identify a range of future tasks.

It is shown that Muhammad Salih's Persian poems were included in Fakhri Hiravi's collection "Radayif ul-ash'or" and in "Bayaz," which

ko'chirilgan bayozga kiritilgani, biroq hali to'liq shaklda nashr etilmagani ko'rsatildi. Shuningdek, Muhammad Solih adabiy merosining rus, venger, turk olimlari tomonidan o'rganilishi tadqiq etildi. Herman Vamberining "Shayboniynoma"ni nemis tiliga o'girib, nashrga tayyorlash jarayonidagi ish uslubi, yondashuvi kitobning kirish qismida berilgan so'zboshi orqali yoritildi.

Maqolada ma'lumotlarni yig'ish, tasniflash, tavsiflash usullaridan foydalanildi. Muhammad Solih adabiy merosi manbalari tizimlashtirildi, yillar davomidagi o'rganilishi tarixiy, tarixiy-madaniy, tarixiy-qiyosiy metod asosida yoritildi. Natijada Muhammad Solih adabiy merosi manbalari va xorijda o'rganilishi borasida tahliliy ma'lumotlar xronikasi yaratildi. Ular kelgusida sohadagi manbashunoslik, matniy-qiyosiy tadqiqotlar uchun manba bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqotdan chiqariladigan xulosa sifatida "Shayboniynoma"ning Vena nusxasi va keyingi yillarda aniqlangan Budapesht nusxasini qiyosiy-matniy tadqiq etish zarurati qayd etildi.

Kalit so'zlar: temuriylar, shayboniylar, adabiy jarayon, ijodkor, manba, doston, bayoz, nashrlar, tarjima, talqin.

was rewritten during the time of Muhammad Rahimkhan Feruz but has not yet been published in full. The study of Muhammad Salih's literary legacy by Russian, Hungarian, and Turkish scholars was also examined. Hermann Vambéry's method and approach to translating the Shaybaniynameh into German and preparing it for publication were described in the preface presented in the book's introduction.

This article utilizes methods of data collection, classification, and description. It systematizes the sources of Muhammad Salih's literary legacy and highlights their study over many years using historical, historical-cultural, and historical-comparative methods. This has resulted in a chronicle of analytical data on the sources of Muhammad Salih's literary legacy and its study abroad. This data will serve as a resource for future source studies and textual-comparative research in this field. The study concludes by noting the need for a comparative textual study of the Vienna copy of the Shaybaniynameh and the Budapest copy discovered in recent years.

Key words: Timurids, Shaybaniynameh, literary process, creator, source, epic, bayoz, publications, translation, interpretation.

KIRISH

Hukmdorlarning ilmga, madaniyatga e'tibori, shaxsiy tashabbusi, homiyligi katta natijalar bergani tarixdan yaxshi ma'lum. Odatda, tinchlik, siyosiy barqarorlik, ijtimoiy hayotning yaxshiligi ijodkorlik uchun qulay muhit va imkoniyat yaratadi. Temuriylardan keyin shayboniylar sulolasining tarix sahnasiga chiqishi, Boburning Xurosondan o'tib Hindistonga ketishi, siyosiy vaziyatdagi notinchlik davr adabiyotiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Bu davr garchi temuriylar davrining oxirgi pallalari bo'lsa ham adabiy, ilmiy muhitda Hirot, Samarqand, Buxoro, Xorazm adabiy muhiti-dagi o'zaro aloqalar, adabiy ta'sirning izchil davom etganini kuzatish mumkin. Tarix maydonida sulolalar almashishi jarayoni kechayotgan bo'lsa-da, keyingi davr adiblari ham shakllangan an'analar ta'sirida ijod qildilar. Bobur va Ubaydulloxonning yozish-malari ulardagi adabiy aloqalarda cheklov bo'lmaganini ko'rsatadi.

XVI asr boshlarida ulkan temuriylar davlatining tanazzuli va Muhammad Shayboniynon hokimiyatining o'rnatilishi jarayonidagi harbiy-siyosiy vaziyatlar ziddiyatli sharoitni yuzaga keltirdi. Bu holat bevosita o'sha davrda bitilgan adabiy, tarixiy asarlarda o'z aksini topdi. Shoir, dostonnavis Muhammad Solih ham Xorazmda tug'ilib, Hirot adabiy maktabidan bahra olgan, o'sha davr tarixiga doir siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etgan muhim shaxslardan biridir.

Muhammad Solih o'rta asrlar tarixida har ikki sulola – temuriylar va shayboniylar sulolasida tarixiy jarayonlarda muayyan darajada qatnashgan shaxs bo'lgani uc-

hun o‘z davridanoq turli adabiy, tarixiy manbalarda nomi zikr etilgan edi. Qolaversa, temuriylarga raqib tomonda turgan Muhammad Shayboniixon yonida yurib, unga bag‘ishlangan tarixiy asar – “Shayboniynoma” dostonini yozgani uchun ham ayri-cha o‘rin tutadi. Ikkinchi tomondan esa, temuriylarga, Boburga qarshi tomondan voqealarni qanday yoritgani jihatidan ham e‘tiborni tortgan, deyish mumkin.

Muhammad Solihning “Shayboniynoma” dostoni o‘zbek epik dostonchiligi tarixida muhim o‘rin tutadi. O‘rta asrlar temuriylar va shayboniylar sulolasi tarixiy jarayonlarida bevosita ishtirok etgan, o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan Muhammad Solihning she‘riy yo‘sinda bitib qoldirgan “Shayboniynoma” dostoni tarixiy shaxslar, voqealarning badiiy tasviri, o‘zbek xalqi, Markaziy Osiyo tarixi, adabiyotiga doir qimmatli manba hisoblanadi. Shunga ko‘ra Muhammad Solihning hayoti, faoliyati, adabiy merosi, “Shayboniynoma”da tarixiy haqiqat va badiiy talqin kabi masalalar har bir davrda o‘rganilishi lozim bo‘lgan dolzarb mavzulardan bo‘lib qolaveradi.

TADQIQOT METODLARI

O‘zbek mumtoz adabiyotini o‘rganishda foydalaniladigan germenevtika, tarixiy, qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-matniy, struktural metodlar yaxshi samara beradi. Biroq mazkur maqolada aynan bir asarning badiiy tahlili yoki matniy tadqiqi tanlab olinmagani uchun umumiy metodlar va usullardan foydalanildi. Xususan, Muhammad Solihning lirik merosi, “Shayboniynoma” dostoni manbalari hamda ularning dunyo olimlari tomonidan o‘rganilish tarixi yaxlit tarzda tadqiq etildi. Kuzatishlar natijasida manbalarni yig‘ish, saralash, umumlashtirish usulidan foydalanildi. Sababi shoir lirik merosi haqidagi manbalar, tadqiqotlar tarqoq va turli tillarda bo‘lgani uchun ular dastlab yig‘ib chiqildi, saralandi va tizimlashtirildi.

“Shayboniynoma” dostoni manbalari va o‘rganilish tarixi ham tarixiy-madaniy, tarixiy-adabiy aspektda ko‘rib chiqildi. To‘plangan ma’lumotlar tasniflandi va davriy ketma-ketlikda tizimlashtirildi. Dostonning tarjimalari, o‘rganilish tarixi va nashrlariga ko‘ra Vengriya, Rossiya, O‘zbekiston, Turkiya olimlarining tadqiqotlari xronikasi shakllantirildi. Natijada Muhammad Solih adabiy merosining xorijda o‘rganilishi borasidagi ma’lumotlar tizimli ravishda batafsil taqdim etildi. Herman Vamberi tayyorlagan nashr va rus olimi P.M. Melioranskiy nashriga xos xususiyatlar tarixiy-qiyo-siy metodda tekshirilgan, har ikki nashrning afzalliklari qayd etilgan.

NATIJALAR

Lirik merosi manbalari

Muhammad Solih temuriylar saroyiga tegishli adabiy muhitda voyaga yetgani ma’lum. Otasi Nur Saidbek ham forsiyda she‘rlar ijod qilgani haqida Alisher Navoiy “Majolis un-nafois”ning ikkinchi majlisida aytib o‘tgan [Navoiy, 2010; 334]. Muhammad Solih dastlabki ilmni Xorazmda olib, so‘ng Hirotda – o‘z davrining allomayi zamoni, diniy-irfoniy bilimlar sohibi, shoir va shorih, tarjimon Abdurahmon Jomiydan tahsil oladi. Muhammad Solih ijodiy kamolotida albatta o‘sha davrdagi adabiy muhit, ustoz ijodkorlar maktabining ta’siri katta bo‘ldi. O‘rta asrlar Sharq adabiyoti, ikkinchi uyg‘onish davri – temuriylar davri ijodiy muhiti bu davr adabiyoti rivojida

yetakchi omil bo'ldi. Muhammad Solih ham o'z davrining katta adabiy maktablari-dan, buyuk adiblardan ta'lim oldi, an'analarni ijodiy o'zlashtirdi, zullisonayn shoir bo'lib yetishdi.

Alisher Navoiy "Majolis un-nafois"da Muhammad Solihni "Tab"ida xeyli diqqat birla choshni bor. Xatqa ham qobiliyati ko'pdur" deb eslaydi, demak u she'r yozishni erta boshlagan va buyuklar e'tiboriga tushgan [Navoiy, 2010; 399].

Muhammad Solih forsiy va turkiy tillarda ijod qilgan, she'rlarini to'plab devon tuzgan, biroq bu devon hali aniqlangan emas. "Majolis un-nafois", "Boburnoma", "Badoye' ul-vaqoye", "Radoyif ul-ash'or", "Otashkada", "Tuhfai Somiy" kabi tazkira, bayoz va tarixiy asarlarda she'rlaridan namunalar berilgan. "Shayboniynoma"da ham bir necha mustaqil she'rlari mavjud.

"Shayboniynoma"ning 1989-yildagi nashrini tayyorlagan xo'jandlik olim Er-gashali Shodiyev Faxriy Hirotiyning "Radoyif ul-ash'or" bayozi Dushanbe nusxasi-dan Muhammad Solihning 10 ta forsiy tilda yozgan she'rini aniqlaydi. Olim 1971-yil-da "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalida "Muhammad Solihning tojikcha she'rlari" nomli maqolasini e'lon qiladi [Shodiyev, 1971; 10-14]. Mazkur manbaning O'ZR FA Sharqshunoslik instituti fondidagi nusxasini [Hirotiy, № 4596] o'rgangan adabiyots-hunos olim A.Hayitmetov bayozda 200 ga yaqin shoirlarning she'rlaridan namunalar berilganini aytadi [Hayitmetov, 1974; 136]. Jumladan, Alisher Navoiyning "Majo-lis un-nafois" tazkirasiga kiritilgan ayrim shoirlarning she'rlari bayozda borligi, ay-niqsa, turkigo'y shoirlar – Gadoiy, Lutfiy, Amiriy, Yaqiniy, Husayn Boyqaro, Bobur, Ubaydiylarning ham forscha she'rlari kiritilganiga ko'ra ham ushbu bayoz qimmatli manba ekanligini ta'kidaydi. Olim Muhammad Rahimxon Feruz buyrug'i bilan hijriy 1318-yilda Xorazmda ko'chirilgan, bugungi kunda O'zR FA Sharqshunoslik institu-tida saqlanayotgan №7379 raqamli bayozning ayricha ahamiyatini qayd etadi. Xusu-san, "№7379 qo'lyozmasining 28, 106, 123, 132-varaqlarida Muhammad Solihning to'rta forscha g'azali bo'lib, ulardan bittasi Faxriy Hirotiy majmuasida uchraydi. Qolgan uchtasi biz uchun yangi. Ulardan quyidagi baytlar bilan boshlangan g'azal juda musiqiy va original:

Biyoki, subhi saodat damida meoyad,

Bideh piyolaki, navbat rasida meyaod.

Biyor yak-du qadah pesh azonki oyad yor,

Ki yor ham du-se jome kashida meoyad" [Hayitmetov, 1974; 136].

A.Hayitmetov bu kabi badiiyati baland she'rlarning yaratilishida Hirot adabiy muhiti, bu adabiy muhitning buyuklari – Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiyning ta'siri katta bo'lganini aytadi. Ko'rinadiki, E.Shodiyev Faxriy Hiraviy tuzgan "Ra-doyif ul-ash'or"da 10 ta, A.Hayitmetov Feruz buyrug'i bilan ko'chirilgan bayozda jami 4 ta (ulardan 3 tasi yangi) yangi she'rini aniqlagan. Demak, jami 13 ta g'azali manbalarda borligi ma'lum bo'ladi. Kelajakda bayozlar, shoir zamondoshlarining asarlarini tekshirish natijasida hali fanga noma'lum she'rlari topilishi mumkin.

Muhammad Solihning lirik merosidan ayrim namunalar yetib kelgan, xolos. Ularning ko'pchiligi fors-tojik, ayrimlari o'zbek tilida bo'lib, asosan g'azal va ruboiy janrida yozilgan. She'rlarining asosiy mavzusi oshiqona mazmunda. Muhammad So-

lihning to'liq devoni yetib kelmagan, turli manbalarda she'rlaridan keltirilgan parcha keltirilgan. Jumladan, Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois", Boburning "Boburnoma", Som Mirzo Safaviyning "Tuhfayi Somiy", Ozariyning "Otashkada", Zayniddin Vosifiyning "Badoye' ul-vaqoye" asarlarida forscha she'rlaridan ikki, to'rt misradan parchalar keltirilgan. O'zining "Shayboniynoma" dostonida esa turkiy tilda bitilgan g'azallaridan namunalar kiritilgan [Solih, 1989; 179].

Alisher Navoiy "Majolis un-nafois"da Muhammad Solih haqida beshinchi majlisda ma'lumotlar davomidan keyin she'ridan parcha beradi: "Tab'ida xeyli diqqat birla choshni bor. Xatqa ham qobiliyati ko'pdur. Bu matla' aningdurkim:

Nayam oshufta gar po'shida kokul mohi tobonash,

Chi g'am az tiyragii shab, chu boshad subh poyonash?" [Navoiy, 2010; 399].

(Mazmuni: *Kokil yorqin oydek yuzini yopib turar ekan, parishon emasman. Oxiri tong bo'lgandan keyin tun qorong'iligidan nima g'am?*)".

Bobur "Boburnoma"da Samarqandda bo'lgan paytlarida Muhammad Solihning quyidagi baytini yodga oladi:

"Shavam sharmanda hargah yori xudro dar nazar binam,

Rafiqon so'i man binandu man so'i digar binam.

(Mazmuni: *Yorima duch kelganimda hol xarob, sharmandaman, Do'stlar ko'z tiksalar menga tomon, men qandaman?!)*" [Bobur, 2022; 73].

Bobur "Boburnoma"ning Hirot shahri, Husayn Boyqaro saroyi, avlodi, beklari va shoirlari zikrida ham Muhammad Solih ijodini alohida ta'riflaydi: "Yana Muhammad Solih edi, choshniliq g'azallari bor, agarchi hamvorlig'i choshnisicha yo'qtur, turki she'ri ham bor, yomon aytmaydur. So'ngra Shayboniynon qoshig'a kelib edi, filjumla rioyat qilib edi. Shayboniynonning otiga bir turkiy masnaviy bitibtur. "Ramali musaddasi maxbun" vaznidakim, "Subha" vazni bo'lg'ay, bisyor sust va furudtur, ani o'qug'on kishi Muhammad Solihning she'ridan bee'tiqod bo'lur. Bir yaxshi bayti budur:

Bo'ldi Tanbalg'a vatan Farg'ona,

Qildi Farg'onani tanbalxona.

Andijon viloyatini Tanbalxona ham derlar, ul masnaviyda muncha bayt ma'lum emaskim, bo'lg'ay. Sharir va zolim tab' va berahm kishi edi" [Bobur, 2022; 137].

Eslatib o'tish joiz, garchi Muhammad Solih Hirotida butun umr yashamagan bo'lsa-da, aksar tarixchi, adabiyotshunoslar uni Hirot adabiy muhiti vakili sifatida yodga oladilar. Jumladan, bu davrda Hirotida Shayxim Suhayliy, Atoulloh Mahmud Husayn, Husayn Jaloyir (Tufayliy), Ahliy, Ohiy, Osafiy, Hiloliy, Binoiy, Xotifiy, Mir Husayn Muammoiy, Sayfiy Buxoriy, Mulla Muhammad Badahshiy, Yusuf Badiiy kabi devon tartib bergan o'nlab mashhur shoirlar; Mirxond va Xondamir kabi tarixnavislar, Sulton Ali Mashhadiy, Mirali va Abdujamil kabi mohir xattotlar, musavvirlar Kamoliddin Behzod, Shoh Muzaffar, Mahmud Muzahhib, mohir sozanda va musiqachilar Xoja Yusuf Burhon, Mavlono Alishoh, Xoja Abdulloh Marvarid, Shayxi Noyi, Qulmuhammad Udiy, Mirmurtoz, Husayn Udiy, Shohquli G'ijjakiy va ko'pgina hofizlar yashab ijod qilar edi.

Muhammad Solih ana shu Hirot adabiy muhitini ko'rgan shoir edi, keyinchalik

Shayboniyxon Hirotni bosib olganda Hirotdagi uyida shoirlarni yig'ib adabiy majlis qilgan, ijodkorlarga ehtirom ko'rsatgan. Boburning she'rlari yaxshi, yomon aytmaydur, ammo "Shayboniynoma"ning "bisyor sust va furudtur" deb bergan bahosi Boburni raqib tomonida turgan Muhammad Solihga xusumati yuzasidan shunday fikr bildirgan bo'lishi mumkin, degan xulosani beradi. Biroq XX asr boshlarida Abdurauf Fitrat "Navoiydek fikrlagan" Boburning nima uchun bunday baho berganiga izoh beradi [Fitrat, 2000; 80]. Olimning fikricha, doston o'rta asrlarda badiiy adabiyot o'zlashtirgan oliy uslubdan pastroq va sodda yozilgani hamda shohlarga atalgan jangnoma tipidagi asarlarga xos mutaqorib vaznida yozilmagan.

Muhammad Solih Hirot, Xorazm, Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlarda yashagan. She'rlari o'z zamonasidanoq e'tiborga tushgani zamondosh shoirlar e'tiboridan ham bilinib turibdi. Demak, bu paytlarda uning ijodi Xuroson va Movarounnahr ijodkorlari orasida juda yaxshi tanish bo'lgan.

Yuqoridagi she'riy parchalardan Muhammad Solihning lirik she'rlari an'anaviy oshiqona mazmunda, shuningdek, siyosiy, o'z hasbi holi, ruhiyatini ifoda etuvchi she'rlardan iborat ekanligini ko'rish mumkin. Muhammad Solihning saroy muhitiga yaqin shaxs bo'lgani, Hirot va Movarounnahr siyosiy-ijtimoiy hayotida ishtirok etgani she'rlarining mazmunidan ham sezilib turibdi. Otasi temuriylar tomonidan o'ldirilib, ro'shnolik ko'rmagani uchun ijtimoiy holatini she'rlari zamiriga singdiradi, ba'zida Chig'atoy beklarini achchiq hajv ostiga oladi:

*Miskin Chig'atoyki, kunduzi tundir ong'a,
Ahvoli parishonu qaro tundir ong'a,
Mag'rur bo'lub, yer yuzig'a sig'mas edi,
Sichqon to'shugi emdi ming oltindur ong'a.*

Uning mazkur ruboiysi temuriy beklari qulog'iga yetib borgani va Boburning unga munosabati haqida Hasanxoja Nisoriy "Muzakkiri ahbob" asarida Majlisiy ta'rifida keltirib o'tgan [Nisoriy, 1993; 80-81]. Shunga ko'ra uning davr, tuzum haqidagi ijtimoiy she'rlarini Shayboniyxonga qo'shilgan davridan keyin yozilgan deyish mumkin.

Umuman, Muhammad Solih lirik she'rlaridan nisbatan kam yetib kelganligi sababli lirikasi haqida batafsil to'xtalish imkonsiz. Saqlanib qolgan she'rlaridan uning uslubi ravon, silliq ekanligi ko'rinib turibdi. Har holda u Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy adabiy maktabini ko'rgan shoirlardan sanaladi. Muhammad Solihning adabiy merosi, badiiy mahorati haqida to'liq tasavvur berishi mumkin bo'lgan asar – bu uning "Shayboniynoma" dostonidir. Muhammad Solihning qo'lyozmalardagi she'rlarini o'rganish kelgusidagi vazifalar sirasiga kiradi.

Muhammad Solihning "Laylo va Majnun" nomli turkiyda dostoni ham borligi aytiladi, biroq bu asar topilgan emas. Muallifi noma'lum "Tavorixi guzida nusratnoma" (1502 – 1505-yilda yozilgan) asari Muhammad Solihga nisbat beriladi, biroq bu aniq emas. "Tavorixi guzida nusratnoma"ni nashrga tayyorlagan filologiya fanlari nomzodi A.Akromov Muhammad Solih tomonidan yozilgan, degan xulosaga kelgan [Akromov, 1967; 14]. Ingliz olimi Charlz Pyer Genri Riyo Buyuk Britaniya muzeyidagi "Tavorixi guzida nusratnoma" asari qo'lyozmasi (№3222) qo'lyozmasini tavsii-

flash jarayonida 40-sahifada va matn oxirida Muhammad Solih ismi qayd etilganini yozadi [Riyo, 1888; 345].

“Shayboniynoma”ning o‘rganilish tarixi

Muhammad Solih o‘rta asrlar tarixida har ikki sulola – temuriylar va shayboniylar sulolasida tarixiy jarayonlarda muayyan darajada qatnashgan shaxs bo‘lgani uchun o‘z davridanoq turli adabiy, tarixiy manbalarda nomi zikr etilgan edi. Qolaversa, temuriylarga raqib tomonda turgan Muhammad Shayboniixon yonida yurib, unga bag‘ishlangan tarixiy asar – “Shayboniynoma” dostonini yozgani uchun ham turli asarlarda nomi albatta zikr etilgan. Temuriylarga, Boburga qarshi tomonda turib voqealarni qay darajada xolislik bilan yoritgani jihatidan ham e‘tiborni tortib kelmoqda.

XX asr o‘zbek adabiyotshunosligida Muhammad Solihning to‘liq tarjimai holi tiklandi, adabiy portreti yaratildi, she‘rlaridan namunalar nashr etildi. “O‘zbek adabiyot tarixi” darsliklariga kiritildi, ta‘lim bosqichlarida o‘qitildi [Mallayev, 1965: 609-631]. “Shayboniynoma” dostoni nashrga tayyorlanib, chop etildi [Solih, 1961; 1989].

“Shayboniynoma” o‘zbek xoni Muhammad Shayboniixon (1851 – 1510) bag‘ishlangan doston bo‘lib, unda temuriylarga qarshi olib borgan harbiy yurishlari tasvirlanadi. Dostonda 1499/1500 – 1505/1506-yillarda ro‘y bergan tarixiy voqealar xronologik tarzda izchillik bilan badiiy ifoda etilgan. Dostonda Shayboniixonning Hirotni olishi va nomiga xutba o‘qitirishi voqeasi yo‘q, shunga ko‘ra asar 1506-yilda yozib tugallangan. Asar syujetining asosiy qismi temuriylar bilan shayboniylar o‘rtasidagi urushlar va ularning oqibatlari, Shayboniixonning g‘alabalari ta‘rifidan iborat. Muhammad Solih hikoya qilnayotgan voqealarning barchasida ishtirok etgan, o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan.

“Shayboniynoma” 76 bob, 8902 misradan iborat. Doston ramal bahrining maxbun tarmog‘i vaznlarida yozilgan [Rahmonova, 2022; 144-154]. Dostonda yetakchilik qiluvchi ramali musaddasi mahbuni mahzuf (foilotun foilotun foilun) bahri qatorida ramali musaddasi mahbuni maqtu’ (foilotun foilotun fa‘lun) bahri ham ishlatilgan. An‘anaviy dostonlar kabi masnaviy usulida qofiyalanadi. Odatda, Sharq adabiyotida shaxslarga bag‘ishlangan jangovar asarlar mutaqorib bahrida yozilgan. Bu vazn odatda, jangovar emas, latif, mayin ohangni yuzaga keltiradi. Shuningdek, shoir o‘zining turli bahrlarda yaratgan g‘azallarini hamda Shayboniixonning bir g‘azalini to‘liq keltiradi, o‘zining g‘azalining matla’sini beradi.

Dostonning dastlabki 16 bobi muqaddima bob bo‘lib, bular: I bob hamd, II bob munojot, III bob payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ga na‘t boblardan iborat. IV bob so‘z ta‘rifi va Shayboniixon madhidan boshlanadi. V bob Shayboniixonning aqlining ta‘rifi, VI bob ilmining tavsifi, VII bob faqirligining bayoni, VIII bob hilmining bayoni, IX bob Qur‘oni o‘qishining bayoni, X bob tab‘ining she‘rni tushunish va aytishda nozikligi, XI bob qilichi, XII bob jibasining sifati, XIII bob karamining sifati, XIV bob hunarlarining vasfi, XV bob kitob nazmining sababi, XVI bob mullo Abdurrahimning ta‘rifi kabi boblardan iborat. Shayboniixonning har bir sifatiga maxsus ta‘rif bag‘ishlangan. Dostonning asosiy qismi XVII bobdan boshlanadi.

“Shayboniynoma” dostonining qo‘lyozma nusxalari juda oz. Fanda yag-

ona nusxa sifatida qayd etiluvchi qo'lyozma shoir hayotligida – 1510-yil Hirotda ko'chirilgan. Kitob 1510 – 1511-yillarda Qosim degan kotib tomonidan ko'chirilgan bo'lib, hozirda Venada Avstriya milliy kutubxonasida saqlanadi [Solih, 1510; 219]. Qo'lyozma nasta'liq xatida ko'chirilgan, 219 varaqdan iborat. Qo'lyozmaga jang va ziyofat manzaralarini ifoda etuvchi 9 ta miniatyura ishlangan.

Yevropada o'rganilishi

Yevropa davlatlarida Muhammad Solih ijodini ilmiy mezonlar asosida o'rganish ishlari ancha oldinroq boshlangan edi. Venadagi Avstriya milliy kutubxonasida faoliyat yuritgan nemis olimi Gustav Leberext Flyugel (Gustav Leberecht Flügel; 1802 – 1870) fondagi arab, forsiy, turkiy qo'lyozmalar katalogini tuzib chiqadi va u yerda saqlanuvchi “Shayboniynoma” qo'lyozmasini ham tavsiflaydi [Flügel, 1865; 323]. Qo'lyozmaning fondga qanday borib qolgani haqida ma'lumot mavjud emas. Eslatma uchun, 1920-yildan boshlab Avstriya milliy kutubxonasi deb yuritilayotgan mazkur fondga kitoblar XIV asrdan boshlab yig'ila boshlangan. Yevropada kutubxonalar albatta qirolik, imperatorlik saroylari qoshida bo'lgan. Herman Vamberi “Shayboniynoma” tarjimasiga yozgan so'zboshida Flyugel bergan ma'lumotlar xato ekanligi, I.N.Berezin [Berezin, 1849] tomonidan nashr etilgan “Shayboniynoma” bilan qiyoslanishi hech qanday ilmiy asosga ega emasligini ta'kidlagan [Vamberi, 1885; 18].

Muhammad Solihning “Shayboniynoma” asari ilk marta venger olimi Herman Vamberi (Vámbéry Ármin, Hermann Bamberger, 1832 – 1913) tomonidan o'rganilgan [Muhammed Salih, 1885]. Qayd etish joiz, Vamberi sharqshunoslarning ichida Markaziy Osiyoni o'z ko'zi bilan ko'rgan kam sonli sharqshunoslardan biridir. Vamberi ko'p yillar Turkiyada yashab, turk tilini o'rganadi. Turkiyadan Markaziy Osiyo bo'ylab safar qiladi, Xiva, Buxoro, Samarqand, Qarshi, so'ngra Hirot, Mashhad orqali Turkiya, so'ng Yevropaga qaytadi (1861 – 64). Uning “Turkcha-nemischa lug'at” (1858), “O'rta Osiyo bo'ylab sayohat” (1864), “Chig'atoy tilidan qo'llanma” (1867), “O'rta Osiyo ocherklari” (1868), “Buxoro yoki Transaksoniya tarixi” (1873) asarlari ana shu safar natijalaridir. Vamberi Vengriyada turkologiyaga asos solgan, darsliklar va xrestomatiyalar tuzgan. Xrestomatiyalariga Alisher Navoiyning asarlaridan parchalar tarjima qilib kiritgan.

U “Shayboniynoma”ni Venada saqlanayotgan qo'lyozmasi asosida ilk bora o'rganib, nemis tiliga o'giran va nashr qilgan yevropalik olimdir. Kitob 1885-yil Venada nashr etilgan [Vamberi, 1885]. Rus olimi P.M. Melioranskiy nashriga ham Vamberi nashri asos bo'lib xizmat qilgan [Salix, 1908].

Sharqshunos olim Herman Vamberi 1885-yili asarni ushbu qo'lyozma asosida eski o'zbek yozuvidagi matni va nemis tiliga tarjimasi bilan Venada nashr etadi. Vamberi nashrida mundarija 4 bet, so'z boshi 13 bet, asl nusxa matni va nemischa tarjima 447 bet, izoh va sharhlar 17 betni tashkil etadi [Vamberi, 1885; 9-21].

So'z boshida Vamberi Muhammad Solihning hayoti va faoliyati, ijodi, o'sha paytdagi Markaziy Osiyo tarixi, Bobur va Shayboniynon haqida ma'lumot berib o'tadi. Markaziy Osiyo va Xuroson tarixidagi olti yillik vaqtda harbiy yurishlari bilan Amir Temur va Nodirshohdek tarixda qolishi mumkin bo'lgan shaxs hayotining qisqa

bir hayoti tasvirlangan deydi. Asarni talqin qilishda olim Boburning bahosiga ham e'tibor qaratadi. Fransuz sharqshunosi Pave de Kurteyl (Abel Jean Baptiste Marie Michel Pavet de Courteille; 1821 – 1889) tomonidan Sharqning Yuliy sezari deb e'tirof etilgan Bobur ham xolislik mezonini saqlay olmagan. Uning hayotiga ko'plab g'am-tashvishlar olib kelgani uchun Bobur Shayboniyxon hayotiga tegishli voqealarni chetlab o'tadi, deydi. Muhammad Solihning mazkur asariga katta minnatdorlik bilan yondashish lozim. U Shayboniyxonni ta'riflash jarayonida ba'zida haqiqiy manzaralarni ham tasvirlaydi. Asardan ko'rinadiki, o'zbeklar raqiblari tomonidan aytilganidek, juda qo'pol va madaniyatsiz emas. Muhammad Solih turkiylardan chiqib, endigina dashtdan chiqqan o'zbeklarga qo'shilgani uchun uning tilida o'zbeklarga moslashgan so'zlar ko'p deydi. Kitobga ishlangan miniatyuralar Eron va Hindiston miniatyuralariga o'xshaydi, bu shia musavvir tomonidan chizilgan bo'lsa kerak. Suratdagi Shayboniyxonning kiyimlaridagi ayrim unsurlar Vengriya milliy kiyimlarida ham uchraydi deydi. Umuman, Vamberi kirish qismida har bir mayda detalgacha e'tibor qaratadi. Madaniyati, dunyoqarashi, tili butunlay o'zga bo'lgan bir olim tomonidan ma'lumotlarning o'ta sinchkovlik va muhabbat bilan talqin qilinishi e'tiborga molik.

Kitobda eski o'zbek yozuvidagi matn va nemis tilidagi tarjima yonma-yon sahifaga qo'yilgan. Bu usul matnning asli bilan tarjimasini bir sahifada o'qish, qiyosiy solishtirish imkonini beradi. Vamberi tarjimasini qiyosiy o'rgangan G'.Xo'jayev uning ish uslubiga xos xususiyatlarni belgilab chiqadi [Xo'jayev, 1984]. Vamberi bungacha Yusuf Xos Hojibning asarini tarjima qilib, tajriba to'plagan edi deydi. Matn taglama tarjima qilingan, ya'ni badiiy, ijodiy tarjima emas. Vamberining kirish qismida yozgan maqsadini ko'rsatib o'tadi: "Maqsadim nemis tiliga ag'daruvchi tarjimon bo'lish emas, Markaziy Osiyoning turkiy adabiyotidan... biror bir asarni tarixchilar, etnograflar va turkologlarga yordam berish uchun umumiy mazmunga yaqinroq keltirib tarjima qilish edi" [Xo'jayev, 1984].

Demak, olim yevropalik turkologlar Markaziy Osiyo tarixini o'rganishda tayanishlari, ularga qulay bo'lishi uchun bu mashhaqqatli ishga qo'l urgan. Umuman, Vamberining katta hajmdagi dostonni nemis tiliga tarjima qilib, izohlari bilan nashr etgani Yevropadagi turkologiya sohasida ulkan xodisa edi. Vamberi bu ishi bilan o'zbek adabiyotini dunyoga tanitishga, turkologiya ilmi rivojiga katta hissa qo'shdi.

Asli shveysariyalik sharqshunos Charlz Pyer Genri Riyo (Charles Pierre Henri Rieu) (1820 – 1902) Buyuk Britaniya muzeyidagi qo'lyozmalarni tavsiflaydi. U faoliyati davomida Sharq adabiyoti manbalari tavsifiga doir "Fors qo'lyozmalari katalogi" (4 jild, 1879 – 95) va "Turkiy qo'lyozmalar katalogi" (1888)ni tuzadi [Riyo, 1895; 1888]. Har ikki to'plamda asar va uning muallifi, davrdagi voqealar, tarixiy shaxslar, asarning tuzilishi va mazmuni haqida ma'lumot berib o'tilgan. Albatta, fondga "Shayboniynoma"ning qo'lyozma nusxasi yo'q. Uning yagona qo'lyozmasi Venada saqlanadi. Charlz Riyo "Turkiy asarlar katalogi"da Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" asari qo'lyozmasini tavsiflaydi. Tazkiradagi majlislarni ta'riflash davomida Muhammad Solihning "Shayboniynoma" dostoni yozgani, uni Vamberi nemis tiliga tarjima qilganini aytadi, shuningdek, otasi Nursaidbek va bobosi Amir Shohmalik haqida kengroq ma'lumot berib o'tadi [Riyo, 1888; 274]. Qizig'i, Charlz Riyo boshqa

adiblarga deyarli to'xtalmagan, faqat Husayn Boyqaroni ta'riflagan. Ko'rinadiki, sharqshunos Muhammad Solih va temuriylar, shayboniylar haqida yaxshi bilimga ega bo'lgan. Muzeida yana "Tavorixi guzida nusratnoma" asari qo'lyozmasi (№ 3222) ham mavjud. Olim qo'lyozmani tavsiflash jarayonida 40-sahifada va matn oxirida Muhammad Solih ismi qayd etilganini yozadi [Riyo, 1888; 345].

Rossiyada o'rganilishi

Markaziy Osiyo tarixi, adabiyoti, madaniyatini o'rganish Rossiyada XIX asr o'rtalaridan boshlangan. Markaziy Osiyoning mustamlaka qilinishi, Sharqqa oid no-dir qo'lyozmalarning Rossiya fondlariga borib qolishi natijasida o'zbek adabiyotiga doir manbalar rus olimlari tomonidan chuqur o'rganilgan. Bu borada Sankt-Peterburgdagi Sharq qo'lyozmalari institutida faoliyat yuritgan sharqshunos olimlarning tadqiqotlari diqqatga sazovor.

1894-yili I.N. Berezin (1818 – 1896) Shayboniynoma tarixiga doir tadqiqot e'lon qilgan edi [Berezin, 1849]. I.Berezin o'zi tahrir qilib nashrga tayyorlagan 16 tomlik (1872 – 1879) "Rus qomusiy lug'ati"ga Alisher Navoiy haqida ilk ma'lumotni kiritgan, turkiy tilli xalqlar adabiyotini to'plab, "Turkiy xrestomatiya" (1857)ni tuzgan ko'p qirrali olimdir. Xususan, u 2 jildlik "Sharq tarixchilari kutubxonasi"ga (1850 – 1851) Rashiddinning "Jome' ut-tavorix" va Muhammad Solihning "Shayboniynoma" asaridan namunalar tarjimai va izohlarini ham kiritadi.

Muhammad Solihning "Shayboniynoma" dostoni rus olimi Platon Mixaylovich Melioranskiy (1868 – 1906) tomonidan o'rganilib, nashrga tayyorlangan [Salix, Muxammed, 1908]. U arab, fors tillari qatorida V.V. Radlov rahbarligida turkiy tilni o'rgangan. Qul tegin bitigtoshi, "Qutadg'u bilig" bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. P.M. Melioranskiy 1904-yil Venaga borib, Vamberi nashrga tayyorlagan nusxani suratga oladi va nashrga tayyorlaydi. Biroq olim kitobni nashrga tayyorlashga ulgurmaydi, 1906-yil 38 yoshida vafot etadi. Kitob 1908-yili A.N. Samoylovich so'zboshisi va rahbarligida chop etiladi. O'zbekistondagi keyingi nashrlarga ushbu nashr asos qilib olingan. Olim Vamberi o'qishga qiynalgan va xato bergan ko'pgina so'zlarni, atamalarni to'g'rilab ketadi, o'sha nusxadagi ikki miniatyurani ham kitobga kiritadi. So'zboshida Vamberi nashri va mazkur ish jarayoni, Muhammad Solih haqida rus tilida ma'lumot berib o'tilgan [Salix, Muxammed, 1908; 4-18].

Turkiyada o'rganilishi

Turkiyada Sevgi Yilmaz, Turgut Yeniay, Yildiz Kosasavash, Arife Eje Evirgen kabi olimlar tomonidan maxsus o'rganilgan [YILMAZ, 1988; YENIAY, 2000; KOCASAVAŞ, 2003; EVİRGİN, 2019]. Ular tomonidan "Shayboniynoma" dostonining ilmiy-tanqidiy matni, izoh va ko'rsatkichlari, lug'atlari ishlab chiqilgan, nashrga tayyorlangan.

Yaqin yillarga qadar "Shayboniynoma"ning faqatgina bitta – Vena, Avstriya Milliy kutubxonasidagi nusxasi borligi qayd etilar edi. Turkiyalik olim Arife Eje Evirgen asarning yana bitta qo'lyozmasi borligini ma'lum qildi [EVİRGİN, 2018; 153-161]. "Shayboniynoma"ning Budapesht nusxasi" bo'yicha 2019-yili doktorlik dissertatsiyasini himoya qiladi. Olim Ismoil Parlatir Mojaristondagi 811 nomdagi tur-

kiy qo'lyozmalar tavsifida mazkur manba haqida ma'lumot bergan edi [PARLATIR, 2007; 155].

Arife Eje Evirgen kitobning bugunga qadar Avstriya Milliy kutubxonasidagi 1156 raqamli nusxasi borligi fanga ma'lum bo'lgani, Vamberi o'sha qo'lyozma asosida nemis tiliga tarjima qilib nashr etgani haqida aytadi. Budapeshtda Mojar Bilimlar Akademiyasi kutubxonasida turkcha qo'lyozmalar katalogida Turuk, Qu 68 raqamda "Shayboniynoma" nomli asar borligini ko'radi va qo'lyozma bilan tanishgach, uning Muhammad Solih asari ekanligini aniqlaydi [EVIRGEN, 2018; 153-161]. Qo'lyozmadagi asar 76 qism 4500 baytdan iborat. Kitobning boshi va oxirgi sahifalarida kamchilik bor. Matnning 96 varag'igacha Vena nusxasidan farqli. Vena nusxasiga ishlangan miniatyuralar o'rni bo'sh sahifa holida. Arife Eje Evirgen tadqiqotda har ikki qo'lyozmani qiyoslab, farqli jihatlarni qayd etgan, tadqiqotlari natijasini 2022-yilda nashr etgan.

Demak, Arife Eje Evirgen tadqiqoti natijalariga ko'ra fanda "Shayboniynoma"-ning 2 ta qo'lyozmasi bor: birinchisi – Herman Vamberi nashrga tayyorlagan Avstriya Milliy kutubxonasi Venadagi 1156 raqamli qo'lyozma, ikkinchisi Budapeshtdagi 68 raqamli qo'lyozma. Bugun o'zbek olimlari ham har ikki nusxani qiyosiy o'rganib, qiyosiy-yig'ma matn tayyorlashsa, fan uchun foydali bo'lardi.

O'zbekistonda o'rganilishi

Muhammad Solihning hayoti va ijodi XX asrda olimlar O.Sharafiddinov, Abdurauf Fitrat, A.Ibrohimov, N.Mallayev, Nasrullo Davron, A.Akramov, E.Shodiyev va boshqa ko'plab olimlar tomonidan o'rganildi.

O'zbek adabiyotshunosligining tamal toshini qo'ygan Abdurauf Fitrat adabiyot tarixiga doir ko'plab tekshirishlar olib borgani ma'lum. Olim "XVI asrdan so'ngra o'zbek adabiyotig'a umumiy bir qarash", "Muhammad Solih" nomli maqolalarida adibning hayoti, faoliyatini yoritadi. Tarixiy dalillar asosida Muhammad Solihning faoliyat yillarini belgilab chiqadi. Boburdek "Navoiy kabi olim bir adabiyotchi tomonidan ham e'tirof etilgan" "Shayboniynoma" haqida "bisyor sust va furudtur" deb bergan bahosini izohlaydi:

"1. Muhammad Solih o'zining yangi o'quvchilari bo'lg'an Shayboni(y) va uning atrofidagi o'zbeklarni nazarda tutib, bu asarni yozg'an. Shayboni(y) va uning atrofidagi o'zbek ulug'larig'a sobiq temur(iy)lar saroyidagi dabdabali, muhtasham uslub yotliq qilar edi. Bular aksariyat e'tibori bilan xalq baxshilarining takallufsiz, sodda uslubiga odat qilg'an edilar. Muhammad Solih mana shularg'a o'qutmak uchun yozg'ani asarda uslubning takallufsizlig'iga, soddaligiga ahamiyat bergan va asarning san'at yog'idan muvaffaqiyatli chiqishig'a diqqat qilmagan.

2. Asar uchun qabul qilingan vazn "ramali musaddasi mahbun" urushg'a oid mavzularg'a munosib ohangdan mahrumdir. Otlarning chopishida, qilichlarning shaqillashida, botirlarning qichqirishida bo'lg'an haybatli ohangni bu vaznda sig'dirmoq mumkin emas. Aruz "jangnoma"larga maxsus ishlang'an tayyor vazn "mutaqoribi musammani maqsur" vaznidir" [Fitrat, 2000; 80].

Demak, Fitrat bunga asarning o'rta asrlardagi oliy uslubdan pastroq va ikkin-

chisi, jangnoma tipidagi asarlar uchun mo'ljallangan mutaqorib vaznida yozilmagani sabab bo'lishi mumkin deydi. Har holda doston realistik tasvirga asoslangani bilan ham ahamiyatlidir.

Adabiyotshunos olimlar shoir haqida turli yo'nalishlarda ilmiy tadqiqot ishlari olib borishgan. A.Ibrohimov 1950-yilda "Muhammad Solihning hayoti va adabiy faoliyati" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi [Ibrohimov, 1950]. Ilk bora shoirning to'liq tarjimayi holini tikladi. "Shayboniynoma" dostonini tahlil qildi. Natan Mallayev oliy o'quv yurti filologiya talabalari uchun yozilgan "O'zbek adabiyoti tarixi" darsligida Muhammad Solih hayoti va ijodi, "Shayboniynoma" badiiyati haqida atroflicha ma'lumot beradi [Mallayev, 1965; 609-631]. 1966-yilda Anvar Akramovning "Muhammad Solih" nomli risolasi nashr etildi [Akramov, 1966].

O'zbekistonda "Shayboniynoma"ning nashr etilishida Nasrulla Davronning xizmati katta [Muhammad Solih, 1961]. Olim asarni 1908-yilda Sankt-Peterburgda chop etilgan rus olimi P.M.Melioranskiy nashriga asoslanib, nashrga tayyorlaydi [Salix, Muxammed, 1908]. "Shayboniynoma"ni 1989-yili adabiyotshunos olim Ergashali Shodiyev Nasrulla Davron nashri asosida qayta nashrga tayyorladi [Muhammad Solih, 1989]. Olim oldingi nashrdagi xatolarni bartaraf etganini kirish qismida izohlab o'tadi.

Muhammad Solih ijodi muayyan darajada o'rganilgan bo'lsa-da, keyingi yillardagi yangi fikrlar asosida, aniqlangan she'rlari to'planib, yaxlit tadqiqot obyekti bo'lganicha yo'q. "Majnun va Laylo", "Noz va Niyoz" nomli asarlar, muallifi noma'lum "Tavorixi guzida nusratnoma" asarini ham Muhammad Solihga nisbat berishadi. Adabiyotshunoslarning bu borada turli bahsli qarashlari borki, ularni manbalar asosida o'rganib, aniq ma'lumotlarni adabiyotshunoslarga taqdim etish zarur.

XULOSA

O'zbek adabiyoti tarixida temuriylar davrida voyaga yetib, shayboniylar saroyida xizmat qilgan, forsiy va turkiy tilda ijod qilgan, Muhammad Shayboniynoma haqida "Shayboniynoma" dostonini yozgan adib Muhammad Solihning ijodini o'rganish XIX asrlardanoq xorij olimlari e'tiborini tortgan edi. Shoir adabiy merosining o'rganilish tarixi bevosita manbalarni tekshirish zaruratini ko'rsatadi. Hozirda Vengriyada saqlanayotgan har ikki qo'lyozmani olish, asl manba asosida "Shayboniynoma" matnini qiyosiy tekshirish ayni zaruriy vazifalardan biridir. Shuningdek, Vengriya, Rossiya va Turkiya olimlarining Muhammad Solih hayoti va ijodini o'rganish borasidagi yangi, tahliliy ma'lumotlar o'zbek adabiyotshunosligidagi Muhammad Solih hayoti va faoliyatiga doir ma'lumotlarni to'ldiradi.

Shoirning forsiy va turkiy tildagi lirik she'rlari manbalarini ham o'rganish, ularni nashrga tayyorlash lozim. ular asosida Muhammad Solihning to'liq adabiy merosini tiklash va badiiy mahoratini yoritish, ijodiga baho berish ham zaruriy vazifalardan sanaladi.

Mustaqillik yillarida adabiyot tarixini yoritishda qarashlar o'zgardi. Ayrim shoh shoirlarni ochiq o'rganish, ularga yangidan baho berish ishlari keng avj oldi. Tariximizning ziddiyatli pallasida ikki tomonda turgan Muhammad Solih, Shayboniynoma

va ularga raqib tomonda turgan Bobur ijodini teng, bor haqiqati bilan o'rganish vaqti keldi. Shu ma'noda mazkur maqolada mazkur ma'lumotlar yaxlit holatda ilk bora qamrab olindi va shoirning lirik va epik merosi manbalari ko'rsatildi. Shoir adabiy merosining o'rganilish tarixi davrlar bo'yicha yoritildiki, kelgusida mazkur ma'lumotlar ma'lum ma'noda ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy. (1997). *Majolis un-nafois*. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 9 jild. Toshkent: Fan. 291 – 453.
2. Abdurauf Fitrat. (2000). *Muhammad Solih*. Tanlangan asarlar. 2 jild. Toshkent: Ma'naviyat. 72 – 82.
3. Arife Ece EVİRGİN. (2018). *Şibani-nâme'nin Budapeşte nüshası üzerine*. /SUTAD; (44): 153 – 161.
4. Akramov A. Muhammad Solih. Toshkent: O'zKP Markaziy birlashgan nashriyoti, 1966. 28 bet.
5. Arife Ece EVİRGİN. (2019). *Şibani-name'nin Budapeşte nüshası (Metin-inceleme-dizin)*. Türkiye Gazi Üniversitesi Doctora tezi.
6. Berezin I.N. (1849). *Sheybaniada*. T. 1: Istoriya mongolotyurkov na djagatayskom dialekte, s perevodom, primechaniyami i prilozheniyami, izdannaya I. Berezinyim, prof. Kazanskogo universiteta. Kazan: Tip. Kazanskogo universiteta (Biblioteka vostochnyx istorikov, izdavaemaya I. Berezinyim. T. 1); t. 2, ch. 1.
7. Zayniddin Vosifiy. (1979). Badoye' ul-vaqoye. Forsiydan Naim Norqulov tarjiması. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
8. Zahiriddin Muhammad Bobur. (2022). *Boburnoma*. Toshkent: "Sharq" NMAK.
9. KOCASAVAŞ, Yıldız. (2003). *Muhammed Sâlih, Şeybânî-nâme (Giriş-Tıpkıbasım-Metin-Tercüme)*, Çantay Kitabevi, İstanbul.
10. Muhammad Solih. (1961). *Shayboniynoma*. Nashrga tayyorlovchi Nasrulla Davron. Toshkent: O'zFA nashriyoti.
11. Muhammad Solih. (1510). *Shayboniynoma*. Avstriya Milliy kutubxonasi, Vena. №1156 qo'lyozma.
12. Muhammad Solih. *Shayboniynoma*. Budapesht. Turk, Qu 68 raqamli qo'lyozma.
13. Muhammad Solih. (1989). *Shayboniynoma*. Nashrga tayyorlovchi va so'zboshi muallifi E.Shodiyev. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti.
14. *Tavorixi guzida nusratnoma*. (1967). Ilmiy tadqiqot, tanqidiy matn, sharhli mundarijalar majmuasi jadvali A.Akromov. Toshkent: Fan.
15. Faxriy Hirotiy. *Radoyif ul-ash'or*. №7379. O'zR FA ShI. 28-sahifa.
16. Hasanxoja Nisoriy. (1993). *Muzakkir ul-ahbob*. Tarjima hamda so'zboshi, izohlar muallifi Ismoil Bekjon. Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi.
17. Hermann Vambéry. (1885). *Die Schebaniade: Ein özbegisches Heldengedicht in 76 gesungen von Prinz Mohammed Salih aus Charezm*. Viyana.
18. Gustav Flügel. (1865). *Die Arabischen, Persischen und Türkischen Handschriften der Kaiserlich-Königlichen Hofbibliothek zu Wien*. Vol. 2: 323 pp.
19. YILMAZ, Sevgi. (1988). *"Muhammed Salih Şeybani-name (1b-69b) Metin-İndeks"*, İstanbul Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Yüksek Lisans Tezi, İstanbul.
20. YENİAY, Turgut. (2000). *"Muhammed Salih Şeybani-Name (138b-182b) Tenkidli Metin-Tercüme İndeks"*, Marmara Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Yüksek Lisans Tezi, İstanbul.
21. Ibrohimov A. (1976). *XVI asr o'zbek adabiyotining asosiy xususiyatlari*. Toshkent. 164 – 207.
22. Ibrohimov A. (1950). *Muhammad Solihning hayoti va adabiy faoliyati*. Filol. fan. nomz. diss... Toshkent.

23. Mallayev N. (1965). *O'zbek adabiyoti tarixi*. 1 kitob. Toshkent: O'qituvchi. 609 – 631.
24. Salix, Muxammed. (1908). *Sheybani-name*: Djagatayskiy tekst / Muxammed Salix; Posmert. izd. prof. P.M. Melioranskogo; Pod nablyudeniem i s predisl. [«O poeme "Sheybani-name" i ob yee avtore Muxammede Salixe»], priv. dos. A.N. Samoylovicha. Sankt-Peterburg.
25. Charles Rieu. (1895). *Catalogue of the Persian Manuscripts in the British Museum*. London.
26. PARLATIR, İsmail; HAZAI, György. (2007). *Macar Bilimler Akademisi Kütüphanesi'ndeki Türkçe El Yazmaları Kataloğu*, Ankara: Türkiye Bilimler Akademisi.
27. KOCASAVAŞ, Y. (2014). Şeybânî-Name'de Yer Alan Şeybânî Han'a Ait Bir Şiir. *İlmî Araştırmalar: Dil, Edebiyat, Tarih İncelemeleri*, (12), 135–142.
28. Rahmonova Sh.M. (2022). “*Shayboniynoma*” dostonidagi vazn imkoniyatlari // *O'zbekistonda xorijiy tillar*. № 3 (44). 144 – 154.
29. Xo'jayev G'. (1984). «*Shayboniynoma*» Vamberi tarjimasida // *Sharq yulduzi*. Toshkent. №2.
30. Hayitmetov A. (1974). *XV asr adabiyotiga oid yangi manbalar / Hayotbaxsh chashma*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 123 – 138.
31. Shodiyev E. (1972). *Muhammad Solih she'rlari / “O'zbekiston madaniyati” gazetasi*, 11 iyul.
32. Shodiyev E. (1971). *Muhammad Solihning tojikcha she'rlari*. // *O'zbek tili va adabiyoti*. Toshkent. №1.

REFERENCES

1. Alisher Navoi. (1997). *Majolis un-nafois. Complete collection of works. 10 volumes. 9 volumes. Tashkent: Fan*. 291 – 453.
2. Abdurauf Fitrat. (2000). *Muhammad Salih. Selected Works. 2 volumes. Tashkent: Ma'naviyat*. 72 – 82.
3. Arife Ece EVİRGİN. (2018). *On the Budapest copy of Şibani-nâme./SUTAD*; (44): 153 – 161.
4. Akramov A. (1966). *Muhammad Salih*. Tashkent: Central United Publishing House of the Communist Party of Uzbekistan. 28 bet.
5. Arife Ece EVİRGİN. (2019). *Budapest copy of Shibani-name (text-browsing-index)*. Türkiye Gazi Üniversitesi Doctorate thesis.
6. Berezin I.N. (1849). *Sheybaniyada. Vol. 1: History of the Mongolo-Turks in the Djagatai dialect, with translation, examples and appendices*, published by I. Berezina, professor of Kazan University. Kazan: Tip. Kazan University (Library of Eastern Historians, published by I. Berezina. Vol. 1); t. 2, ch. 1.
7. Zayniddin Vasifi. (1979). *Badoe' ul-waqoe*. Translated from Persian by Naim Norkulov. Tashkent: Gafur Ghulam Literature and Arts Publishing House.
8. Zahiriddin Muhammad Babur. (2022). *Baburnama*. Tashkent: “Sharq” National Publishing House.
9. KOCASAVAŞ, Yıldız. (2003). *Muhammed Sâlih, Şeybânî-nâme (Introduction-Typkibasım-Metin-Tercüme)*, Çantay Kitabevi, İstanbul.
10. Muhammad Salih. (1961). *Shaybaniynoma*. Prepared for publication by Nasrulla Davron. Tashkent: UzFA Publishing House.
11. Muhammad Salih. (1510). *Shaybani's Book*. Austrian National Library, Vienna. Manuscript No. 1156.
12. Muhammad Salih. *Shaybaniynoma*. Budapest. Turkish, manuscript number Qu 68.
13. Muhammad Salih. (1989). *Shaybaniynoma*. Prepared for publication and author of the foreword E. Shodiev. Tashkent: Gafur Ghulam Literature and Art Publishing House.
14. *Tavorikhi guzida nusratnoma. (1967)*. Scientific research, critical text, table of contents with commentary A.Akromov. Tashkent: Fan.
15. Fakhriy Hirotiy. *Radoif ul-Ash'ar*. №7379. UzR FA ShI. Page 28.

16. Hasankhoja Nisoriy. (1993). *Muzakkir ul-ahbob*. Translation, introduction, and comments by Ismail Bekjon. Tashkent: Abdulla Qodiriy National Heritage.
17. Hermann Vambery. (1885). *Die Schebaniade: Ein özbegisches Heldengedicht in 76 gesungen von Prinz Mohammed Salih aus Charezm*. Viyana.
18. Gustav Flügel. (1865). *Die Arabischen, Persischen und Türkischen Handschriften der Kaiserlich-Königlichen Hofbibliothek zu Wien*. Vol. 2: 323 pp.
19. YILMAZ, Sevgi. (1988). "*Muhammed Salih Şeybani-name (1b-69b) Text-Index*", İstanbul Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Yüksek Lisans Tezi, İstanbul.
20. YENİAY, Turgut. (2000). "*Muhammed Salih Şeybani-Name (138b-182b) Tenkidli Metin-Tercüme Index*", Marmara Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Yüksek Lisans Tezi, İstanbul.
21. Ibrohimov A. (1976). *The main features of Uzbek literature of the 16th century*. Tashkent. 164 – 207.
22. Ibrohimov A. (1950). *The life and literary work of Muhammad Salih*. Philology. science. candidate of sciences. diss... Tashkent.
23. Mallaev N. (1965). *History of Uzbek literature*. 1 book. Tashkent: Teacher. 609 – 631.
24. Salikh, Mukhammed. (1908). *Sheibani-name: Djagataysky text / Muhammed Salih; Posmert. izd. prof. P.M. Melioranskogo; Pod nablyudeniem i s predisl. [«O poem "Sheibani-name" i ob yee avtore Muhammede Salixe»]*, priv. Assoc. A.N. Samoylovicha. St. Petersburg.
25. Charles Rieu. (1895). *Catalogue of the Persian Manuscripts in the British Museum*. London.
26. PARLATIR, Ismail; HAZAİ, György. (2007). *Catalog of Turkish Manuscripts in the Library of the Hungarian Academy of Sciences*, Ankara: Turkish Academy of Sciences.
27. KOCASAVAŞ, Y. (2014) *A Poem by Şeybânî Khan in Şeybânî-Name*. Scientific Research: Language, Literature, History Studies, (12), 135–142.
28. Rahmonova Sh.M. (2022). *The possibilities of weight in the epic poem "Shayboniynoma" // Foreign languages in Uzbekistan*. № 3 (44). 144 – 154.
29. Kho'jaev G'. (1984). *"Shayboniynoma" in Vamberi's translation // Star of the East*. Tashkent. No. 2.
30. Hayitmetov A. (1974). *New sources on the literature of the 15th century / Hayotbakhsh chashma*. Tashkent: Gafur Ghulam Literature and Art Publishing House. 123 – 138.
31. Shodiev E. (1972). *Poems by Muhammad Salih / "Culture of Uzbekistan" newspaper, July 11*.
32. Shodiev E. (1971). *Tajik poems of Muhammad Salih. // Uzbek language and literature*. Tashkent. No. 1